
SIYOSIY PARTIYALAR DEBATI

Xalqaro matbuot markazi Farg'ona viloyati bo'limida siyosiy partiyalar vakillari ishtirokida saylovoldi targ'iboti doirasida navbatdagi debat o'tkazildi.

Debatda ommaviy axborot vositalari va blogerlar ishtirok etdilar.

Farg'ona viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi boshlig'i, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodi tavsiya etilgan partiya faoli Umidjon Jabborov, shuningdek, O'zXDP vakili Ziyoda Hamroliyeva, O'zLiDeP viloyat Kengashi raisi Rahmatullo Kamalov, "Adolat" SDP vakili Jasurbek Akramov, O'zbekiston Ekologik partiyasi viloyat Kengashi Ijroiya qo'mitasi raisi Muhammadali Mahmudovlar ikki soat vaqt davomida jurnalist va blogerlarning ko'plab savollariga javob qaytardilar.

2019-11-23 17:56:59